

№ 8 (3) - 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Воҳидова Комила Абдуллозизовна</i>	
“ЭЛ БАЙРОФИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА	11-17
<i>Сулайманов Саламат Арапбаевич</i>	
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ)	18-24
<i>Raupov Холмамат</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ	25-32
<i>Мажидов Анвар Сиражович</i>	
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	33-40
<i>Begamatova Nasiba Xolmurzayevna</i>	
FERMER XO'JALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN O'RTA MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	41-48
<i>Алланазаров Мурот Мирзаевич</i>	
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА	49-54
<i>Ismoilova Feruza Ibragimovna</i>	
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI	55-59
<i>Tursunov Xurshid Nasriddinovich</i>	
O'ZBEKİSTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI	60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Yuldasheva Gulnoza Abdinabiyevna</i>	
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES	65-70
<i>Oromidinov Muzaffar Pardabayevich</i>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS	71-75
<i>Худайназарова Дилором Хайруллаевна</i>	
ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	76-84

<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i>	
КО'ЧХМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШДА ХОРИЙИ ДАВЛАТЛАРДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОХОТЛАР	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i>	
МИНТАҚАДА ХИЗМАТ ТУРЛАРИДАН САМАРАЛИ РИВОЈЛАНТИРИШ ЙО'НАЛИШЛАРИ	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i>	
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i>	
AGRAR SOHAGA XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i>	
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Гаффор Аллақулович</i>	
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёрөв Олимжон Умаровиҷ</i>	
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ	151-158
<i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевиҷ</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназаровиҷ</i>	
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

<i>Гадоев Сўҳроб Жумакулович</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	175-181
<i>Бекжанов Дилмурад Йўлдашович</i>	
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ	182-193
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o'g'li</i>	
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA)	194-200
<i>Xayridinov Abbosxon Anvarovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLİSHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI	201-205
<i>Quramboev Alisher Maxsudovich</i>	
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI	206-211
<i>Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich</i>	
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI	212-217
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV	218-224
<i>Пардаева Марҳабо Давлатовна</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ФОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ	225-233
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	234-240
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i>	
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR	241-246
<i>Юсупова Феруза Зойировна</i>	
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАҶНАВИЙ ЮҚСАЛИШИННИГ МЕЗОНИ	247-251
<i>Teshaboev Muhiddin Marifovich</i>	
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI	252-257

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i>	
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI	258-265
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLOGIK BIRLIKLER LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA	266-269
<i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i>	
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE	270-276
<i>Бозорова Хулкар Одинақуловна</i>	
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ	277-282
<i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i>	
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI	283-288
<i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i>	
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ	289-293
<i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i>	
O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI	294-299
<i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	300-305

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ	306-310
<i>Сафоева Садокат Мусоевна</i>	
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА	311-320
<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i>	
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ	321-330

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Zoirova Lola Xamidovna</i>	
TIBBIYOT OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSİYAGA SEZGİRLİĞİ” MAVZUSINI O'QTİSHDA RAQAMLI TEKNOLOGİYALARDAN	

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i>	
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i>	
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна</i>	
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i>	
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i>	
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i>	
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i>	
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i>	
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHА SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i>	
MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i>	
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i>	
SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i>	
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i>	
BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i>	
INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

10.00.00- Филология фанлари

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida kauzativ fe'llarni yasalish usullari to'liq o'r ganilgan. Tadqiqot o'zbek tilidagi kauzativ fe'l yasalishining morfologik va analitik jihatlarini o'zida mujassam etgan. Maqola turli lingvistik manbalarni o'r ganib, o'zbek tilidagi kauzativ fe'llarinining yasalishi va qo'llanishi asosidagi tamoyillarni yoritishga qaratilgan. Maqola kauzativ fe'l yasalishi bilan bog'liq nazariy asos va lingvistik tushunchalarni bayon qilish bilan boshlanadi.

Kalit so'zlar. Kauzativlik, orttirma nisbat, harakat fe'llari

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna
Teacher of Fergana State University

WAYS OF MAKING CAUSATIVE VERBS IN UZBEK

Abstract. This scientific article presents a comprehensive study on the methods employed in forming the causative verb in Uzbek. The study combines descriptive and analytical approaches to investigate the morphological and syntactic aspects of causative verb formation in Uzbek. By examining various linguistic resources, the article aims to shed light on the principles underlying the creation and usage of causative verbs in Uzbek. The article begins by outlining the theoretical framework and linguistic concepts related to causative verb formation.

Key words. Causation, action verbs, reason-result

Каримджонова Шахло Равшанджоновна
Учитель Ферганского государственного университета

СПОСОБЫ ОБРАЗОВАНИЯ КАУЗАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В данной статье полностью изучены способы образования каузативных глаголов в узбекском языке. Исследование включало морфологические и аналитические аспекты каузативного глагольного образования в узбекском языке. Статья направлена на изучение различных лингвистических источников, чтобы осветить принципы, лежащие в основе образования и использования каузативных глаголов в узбекском языке. Статья начинается с изложения теоретической основы и лингвистических концепций, касающихся образования каузативного глагола.

Ключевые слова. Каузативность, отношение приобретения, глаголы действия

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N42>

Kirish. O'zbek tilshunosligida o'zbek milliy modeliga mos keluvchi ta'lif tizimini tashkil etish va rivojlantirishning zamonaviy talablar darajasidagi asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda muhim natijalarga erishilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida "Davlat tilining xalqaro miqyosidagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishiga katta e'tibor qaratilmoqda", deya alohida ta'kidlangan.[1]

Kauzatsiya lotincha "causa" so'zidan olingen bo'lib, "sabab" ma'nosini ifodalaydi [2]. Mazkur hodisa tilshunoslikda aynan shu jihatdan o'rganiladi hamda kauzativ fe'lning asosiy semasi sifatida sabab ma'nosi bilan bog'lanishi ta'kidlanadi. Aksariyat ishlarda kauzativlik tushunchasi fe'lning orttirma darajasi bilan bog'lanib, asosan, morfologik nuqtayi nazardan tekshirilgan va kauzativlikda bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan bajarilgan harakat mavjudligi aytilgan. Bizningcha, kauzatsiyani faqat sabab ma'nosi bilan cheklab qo'yish maqsadga muvofiq emas. Zero, bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan bajariladigan harakat orqali faqat sabab ma'nosi emas, balki maqsad, natija, shart ma'nolari ham ifodalanishi mumkin. Shunday ekan, bugungi tilshunoslikda kauzativ ma'noning o'rganilishi masalasi izohtalab ko'rindi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma'lumki, dunyo tillarida kauzativ fe'llar mantiqiy, ontologik, leksik va grammatik, qiyosiy tipologik, kognitiv kabi yo'nalishlar doirasida keng tadqiq etilmoqda. Kauzativlik tilning eng sirli, to'liq o'rganilmagan kategoriylaridan biridir. Kauzativlikni o'rganishga 20-asrning ikkinchi yarmida jiddiy kirishilgan.

Kauzativlik nazariyasi va kauzativ konstruksiylar birinchi navbatda V.P.Nedyalkov, G.G.Silnitskiy, A.A.Xolodovich, V.S.Xrakovskiy, B.Komri, M.Shibatani, L.Talmi kabi tilshunos olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. O'zbek tilshunosligida R.Rasulov, N.Mahmudov, A.G'ulomov, J.Bo'ronov, S.Mahmatqulov, B.N.Turdiniyazov ishlarda kauzativlikni ko'rishimiz mumkin. Lekin boradagi muammolar o'zining to'liq yechimini topgan deb aytal olmaymiz.

Alisher Navoiy turkiy tilda, garchi o'sha davrda kauzativlik deb atalmagan bo'lsa-da, mazkur tushunchani ifodalovchi o'z ko'rsatkichlari mavjudligini aytib o'tadilar: "Yana arabiylar istilohda ikki maf'ulluq fe'llar borki, uning adosi dag'i mo'tabar va kulliydur. Andin dag'i sortlar oriy qolibdurlar. Va atrok anga xo'broq vajh bila mutobaat qilibdurlar. Arabiy andoqki, "A'taytu Zaydan dirhaman", (Zaydnинг dirhamini berishimni buyurdilar) bu tarkibda uch lafz mazkur bo'lur. Alar lafzg'a bir harf ortturg'on bila munga o'xshash bir zamirni ortubdurlar, bag'oyat muxtasar va mufid tushubdur. Andoqki, yogurt va qildurt va yashurt va chiqurt". Ma'nosi: "Arabiylar ikki maf'ulluk fe'llar (vositali obyektlar buyruq ma'nosi) ham sortlarda yo'q, turkiylar bir harf qo'shish orqali bu ma'noni juda qisqa va aniq ifodalaydilar" [9].

Mahmud Koshg'ariy bu hodisa to'g'risida: "O'zlik fe'lning manqus va to'rt harflilarga kelganda, bularga -t qo'shilib, ikki foildan maf'ulga o'tuvchi o'timli fe'l yasaladi. Ularning biri buyuruvchi, ikkinchisi bajaruvchidir. Chunonchi er bitik bitidi – odam xat yozdi. Bu fe'l ish birgina ishlovchi tomonidan ishlanganligini anglatadi. Ammo ol angar bitik bititti – u unga xat yozdirdi gapida bititti fe'li maf'ulga ikki ishlovchi foildan o'tgandir. Biri xat yozishga buyurgan, ikkinchisi yozgan [13]".

O'zbek tilida harakat fe'llarining orttirma nisbatda qo'llanishi kauzatsiya hodisi bilan bog'lanadi. N.Mahmudov bu hodisa haqida: "... kauzativ formaning invariant mazmuni orttirma nisbatdagi kabi shundan iboratki, agens harakatni bevosita emas, balki alohida semantik subyekt (patsiyens) orqali bajaradi", - degan fikrni bildirsa [5], R.Rasulov yana ham aniqroq qilib: "Fe'lda orttirma nisbat formasining yasalishi bilan kauzatsiya vositasi (agensi) hosil bo'ladi", - deb ta'kidlaydi [6]. Demak, ayrim obyektsiz harakat fe'llari orttirma nisbatli bo'lganida ularda obyekt ortmaydi, balki ularda patsiyens valentligi yuzaga keladi. Bizning fikrimizcha, buning asosi ham harakat fe'llarining ma'noviy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, bunda harakat qiluvchiga yangi ijrochi, bajaruvchi qo'shiladi, obyekt emas.

A.G'ulomov ta'kidlab o'tganidek: "Fe'l orttirma darajasiga o'tishi bilan avvalgi fikr materiali kengayib, oraga biror predmet yoki shaxs qo'shiladi" [3]. O'tgan asrning 80-yillaridan keyin orttirma nisbat shakllari kauzativlik bilan bog'liq holda tadqiq etilmoqda. Jumladan, S.Mahmatqulovning nomzodlik dissertatsiyasida orttirma nisbat shakllarining yasalishi jarayonida kauzallahash ma'nosi va u bilan bog'liq kauzallovchi subyekt tushunchasining paydo bo'lishi qayd qilingan [13]. Ortirma nisbatni kauzativ nisbat deb ta'riflash bir qator tilshunoslar tomonidan tan olingan [9]. Ortirma nisbat shakllari morfologik kauzativ shakllari sifatida o'zbek tilshunosligida e'lon qilingan monografik tadqiqotlarda ham talqin etilgan [17].

Demak, harakat fe'llari orttirma nisbatni qabul qilganida kauzativ vaziyatni yuzaga keltiradi, deb hisoblash mumkin. Shunga ko'ra patsiyens valentligini tekshirishda fe'llarning kauzativ vaziyat yaratish jarayonini maxsus ko'rib chiqamiz. Harakat fe'llaridan, asosan, morfologik va analitik kauzativ shakllar hosil bo'ladi. Semantik kauzativ esa oz miqdordagi harakat fe'llarida kuzatiladi (garchi semantik kauzativli fe'llarda orttirma nisbat qo'shimchasi bo'lmasa-da, ularda mantiqan patsiyens valentligi mavjud). Quyida dastlab morfologik va so'ngra analitik kauzativli harakat fe'llari haqida fikr yuritamiz.

Ma'lumki, kauzatsiya sabab-natija munosabatini ifodalaydi. R.Rasulovning ta'kidlashicha, bu kauzatsiya keng ma'noda tushunishdan kelib chiqadi [6]. Aslida semantik tuzilishida natija ma'nosi yo'q. Ammo kauzatsiya (sabab) mantiqiy aloqasiga ko'ra natija bilan bevosita bog'lanadi, chunki sabab va natija dialektik birlikda, bog'liqlikda kuzatiladi.

Ma'lumki, kauzatsiya va o'timlilik predmetlar orasda munosabatdan, ta'sir qiluvchi bilan ta'sirlanuvchi predmetlarning mavjudligidan, ularning o'zaro aloqasidan hosil bo'ladi. Kauzativ munosabatda patsiyens subyekt ta'sirida harakatni o'ziga oladi [11]. Muayyan harakatdagi predmet natija sifatida reallashadi. Kauzatsiya agens, obyekt (patsiyens) va harakat qismlaridan iborat bo'ladi. Ular orasida mantiqiy aloqa predmetning harakatga ega bo'lishida agens ta'siri-kauzatsiya vositasining (agensning) faolligi (ekstralengvistik omillarning, faktitivlikning mavjudligi) kabilar kauzativ munosabat uchun zaruriy, doimiydir [6].

Demak, obyektsiz va obyektli harakat fe'llariga orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilishi bilan patsiyens valentligi yuzaga keladi (bunda, aytilganidek, obyektli fe'llardagi obyekt valentligi to'liq saqlanadi). Ma'lumki, ayrim tilshunoslar "o'timsiz fe'llarni nokauzativ, o'timli fe'llarni esa kauzallahash uchun qulaydir", - deb hisoblaydilar. Xususan, E.E.Kordining fikricha, kauzativ keng ma'noda tushunilib, uni o'timlilik bilan tenglashtirish mumkin [11].

Bizningcha, E.E.Kordining bu fikri munozarali bo'lib, barcha o'timli fe'llarni kauzativ fe'llar sirasiga kiritib bo'lmaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, kauzativ vaziyat uchun: a) tushum kelishigidagi to'ldiruvchi bilan ifodalangan obyekt (yoki patsiyens); b) ega vazifasidagi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalangan kauzallovchi agens; v) o'timli fe'l bilan ifodalangan predikat

zarur [15]. Kauzativ vaziyat yuzaga kelishi uchun fe'lidan anglashiladigan harakat ta'sirchan, faol harakat bo'lishi, bu harakatni amalga oshiruvchi agens patsiyensga ta'sir etib, uning holatini o'zgartirishi, ya'ni kauzallash kuchiga ega bo'lishi lozim. Ta'kidlash mumkinki, obyektlvi va obyektsiz harakat fe'llari orttirma nisbatni qabul qilganida kauzativ vaziyat yuzaga keladi. Xususan, harakat fe'llarida morfologik kauzativning hosil bo'lishi uchun ularga orttirma nisbat qo'shimchasini qo'shish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, orttirma nisbat shakllariga xos tuzilmalar turlicha semantik vaziyatlarni ifodalaydi. Ya'ni bunda agens-patsiyens munosabati quyidagicha kechadi: 1. Insonning insonga (yoki jonli mavjudotlarga) ta'siri. 2. Insonning predmetga yoki voqeа-hodisalarga ta'siri. 3. Voqeа-hodisalarning insonga ta'siri. 4. Muayyan voqeа-hodisalarning boshqa voqeа-hodisalarga ta'siri, ulardagи sabab-oqibat munosabati [11].

Harakat fe'llari doirasida bu semantik vaziyatlarning ayrimlari kuzatiladi:

1.Insonning insonga (yoki jonli mavjudotlarga) ta'sir o'tkazish vaziyati. Bu kauzativ vaziyatda agens va patsiyens qatnashadi. Misollar: O'n bir kishini bandi qilib, qo'llarini chilvir bilan bog'latdi-da, oldiga solib haydab ketdi (K.Yashin, "Hamza"). Iskandar usti yopiq, g'ildirakli taranlar yasattirdi (M.Osim, "Ajdodlarimiz qissasi"). Boy hammaga sozu tomosha, atrofga ovoza bo'lsin, deb kelin o'tovi uchun baland supa qurib ustiga oq o'tov tiktirdi (Yoshlik).

2. Insonning voqeа-hodisalar yoki predmetlar ta'siri. Bunda kauzallovchi subyekt (ijrochi, agens) harakatining obyekti predmetlar yoki voqeа-hodisalar bo'ladi (harakat fe'llari doirasida bu predmetlardir). Bunday semantik vaziyatlar obyektsiz harakat fe'llari bilan ham bog'liq holatda uchraydi. M.A'lamovaning ta'kidlashicha: "Insonning predmetga ta'sirini ifodalash o'timsiz fe'llar doirasida o'timli fe'llaridan yasalgan orttirma nisbatga qaraganda deyarli ikki barobar ko'p. Umuman, nutqda o'timsiz fe'llardan yasalgan orttirma nisbat shakllari o'timli fe'llardan yasalgan orttirma nisbat shakllaridan ko'ra ikki-uch barobar ko'p qo'llanadi. Bu o'timsiz fe'llarni o'timlishtirish, ya'ni shu fe'llar semantikasi bilan bog'liq holda obyekt valentligi qatnashgan semantik vaziyatlarni yuzaga keltirish zarurati va shunday vaziyatni ifodalaydigan tuzilmalarning ixchamligi bilan izohlanadi". O'zbek tilidagi harakat fe'llari (ayniqsa, ko'p sonli natijali ijroni ifodalovchi fe'llar) misolida esa bu fikrga mutlaqo zid fikrni aytish mumkin. Ya'ni, aksincha, obyektlvi harakat fe'llarida orttirma nisbat qo'shimchasini qabul qilish kuchlidir.

"Insonning voqeа-hodisalar yoki predmetlarga ta'siri" semantik vaziyatining ifodalanishi natijasida ham patsiyens valentligi yuzaga keladi. U morfologik kauzativ shakllarda ifodalanadi. Bunda agens patsiyensni (ya'ni jonsiz obyektlarni) harakat qilishga majbur qiladi. Masalan: Ziyovuddin ballonni aylantirib pastga dumalatib yubordi. Ko'rindiki, harakat patsiyens tomonidan bajarilgan, ammo unga sabab- boshqa bir agens, ya'ni inson, aynan u ballonning harakat qilishi uchun asos bo'lgan. Shunga ko'ra bu gapda kuchli kauzativ munosabat ifodalangan.

3. Voqeа-hodisalarning insonga ta'siri. Bunday semantik vaziyat insonga ta'sir o'tkazadigan predmet, voqeа-hodisalar subyekt valentligini bildiradi [10]. E.Kordining, ta'kidlashicha, bu voqeа-hodisalar kauzativ vaziyatning patsiyensiga, ya'ni insonning holatiga (jismoniy, emotsiyonal, aqliy) ta'sir ko'rsatadi. Ko'rindib turibdiki, bu vaziyatlar, asosan, insonning holati bilan bog'liq tarzda kechadi. Shu sababli bu o'rinda harakat fe'llari haqida fikr yuritish nomantiqiy, ya'ni harakat fe'llari mazkur semantik vaziyatlarni yuzaga keltirmaydi.

4. Muayyan voqeа-hodisalarning boshqa voqeа-hodisalarga ta'siri, ulardagi sabab-oqibat munosabati. Semantik vaziyatning bu turi ham harakat fe'llarining patsiyens valentligiga bevosita aloqador emas. Shu sababli to'rtinchi semantik vaziyatga ham to'xtalinmaydi.

Tahlil va natijalar. Harakat fe'llari patsiyens valentligining namoyon etuvchisi vazifasida jonli mavjudotlarni bildiruvchi tushum kelishikli so'zlar ham keladi. Masalan: chol ayg'irni pastlikka qarab choptirdi (A.Samadov). Halim kecha kechqurun otlarni daryodan kechtirgan edi (S.Ashurov).

O'zbek tilidagi harakat fe'llarining patsiyens valentligi ham grammatik shakl semantikasiga asoslanuvchi valentlik hisoblanadi.

Obyektsiz harakat fe'llariga orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilishi bilan ularda patsiyens valentligi yuzaga keladi. Shunga ko'ra harakat fe'lli kauzativ vaziyat ham vujudga keladi. Harakat fe'llaridan morfologik kauzativ hamda analitik kauzativlar hosil bo'ladi.

Harakat fe'lli morfologik kauzativlarda ba'zan distant kauzativ ma'no, ba'zan esa kontakt kauzativ ma'no ifodalanadi. Gapda qaysi ma'noning ifodalanishi patsiyensning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Harakat fe'llari majbur qilmoq, buyurmoq, undamoq, so'ramoq, talab qilmoq, iltimos qilmoq, qistamoq, chorlamoq kabi sof kauzatorlar qatnashgan gap qurilmalarida ham patsiyens valentligi yuzaga keladi. Bunda harakat fe'lining grammatik shakli ham o'zgaradi: fe'l harakat nomi shaklida va kelishik qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Buyurmoq, so'ramoq, chaqirmoq, undamoq, talab qilmoq, majbur qilmoq kabi fe'llar bilan shakllangan gaplarda hamma vaqt ikkilamchi predikatsiya vujudga keladi va bunday gaplarda polisubyektlar polipredikativlik kuzatiladi.

Harakat fe'llarining "natijali ijro" birlashtiruvchi semali turtmoq, surmoq, itarmoq, siltamoq, chalmoq, ag'darmoq, yiqmoq kabi fe'llar ma'nosida semantik kauzativ mavjud. Shunga ko'ra mazkur fe'llar gapda til birligi sifatida kauzativ vaziyatni va shu asosda patsiyens valentligini yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida Alisher Navoiy "Muhokamat ullug'atayn" asarida kauzativ fe'llarni garchi asarda kauzativlik termini ishlatilmagan bo'lsa ham, ushbu tushunchani misollar orqali asoslab bergen. Harakat fe'llaridan yasalgan morfologik kauzativlar orttirma nisbat shakllariga xos semantik vaziyatlardan: a) "insonning insonga (yoki boshqa jonli mavjudotlarga) ta'siri"; b) "insonning predmetga yoki voqeа-hodisalarga ta'siri" kabi ko'rinishlarini ifodalaydi. Ularda, asosan, faktitiv ma'no ifodalanadi, permissiv kauzatsiya deyarli kuzatilmaydi. Demak, o'zbek tilida ham sof analitik kauzativ fe'llar mavjud.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 20.10.2020 yildagi PF-6084-son
2. Comrie, B. Causatives and universal grammar. Transactions of the Philological Society. – 1975. – P. 1–32
3. G'ulomov A.G'. Fe'l. B.63
4. Karimjonova, S. R. (2021). Cognitive Aspects Of The Causative Verb To Have In Modern English. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 2(11), 141-145.

5. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. -Toshkent, 1984. B.27
6. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. B. 121
7. Ravshanjonovna, K. S. (2023). Stylistic Features of Causative Verbs in the Uzbek Language. Jurnal Multidisiplin Madani, 3(4), 879-884.
8. Ravshanjonovna, K. S. (2023). The Meaning of Causative Verbs. Jurnal Multidisiplin Madani, 3(1), 14-18.
9. Алишер Навоий. Муҳокамат-ул луғатайн (Нашрга тайёрловчилар: Ойбек, Порсо Шамсиев). Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1948. -Б.9
10. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. С- 194.
11. Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. - С. 114
12. Корди Е.Е. Семантическая и синтаксическая структура предложения со знаменательными каузативными глаголами и оборотами в современном французском языке // Структура и объем предложения и словосочетания в индоевропейских языках. -Л., Наука, 1981. -С. 49-68.
13. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. II том. (Таржимон ва нашрга таёровчи С.М.Муталлибов). -Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1963. -Б. 376
14. Кўчқортоев И. Нутқий даъват феълларнинг семантик модели ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. -1974, 6-сон.;
15. Махматкулов С. Побудительный залог в современном узбекском языке. Автореф.дис....канд. филол. наук. – Ташкент, 1980.- С.15-16.
16. Миртохиров М. Нисбат категориялари семантикаси ва улар формантлари генезиси. йтимсизлик ва ўзлик нисбати // Ўзбек тили ва адабиёти .1983. 2- сон.
17. Недялков В.П., Сильницкий Г.Г.Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив // Типология морфологического и лексического каузативов. -Л., 1969, с.6.
18. Тожиев Ё. Феъллардаги ўтимли-ўтимсизлик ҳақида // Ўбек тилшунослигининг актуал масалалари.- Тошкент, 1987, 37 –б.
19. Фердаус С. Феъл. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1- том. -Тошкент, 1966

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).